

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI XUSUSIDA

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adbiyoti fakulteti talabasi **Mizomova Farida Abror qizi**,
Ilmiy rahbar: A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika
instituti o‘qituvchi **Usmonov Aslam Qarshiboyevich**.

O‘zbek leksikografiyasi deyilganda, o‘zbek tilining lug‘at boyligi, undagi lug‘at turlari va tiplari tushuniladi.

Lug‘at tuzish turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz so‘zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan.

O‘zbek leksikografiyasini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari boshlab berdi. Dastlabki lug‘atlarning aksariyati umumlashgan, universal xususiyatlarga ega bo‘lgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari ham ayni shu xarakterda yozilgan. Asarda muallif faqat so‘zlar va ularning ma’nolarini tavsiflamasdan ,xalq og‘zaki ijodi namunalari, urf-odatlar, geografik va etnografik kabi keng qamrovli ma’lumotlar keltirilgan. “Devonu lug‘atit turk” asari o‘zbek xalqi tarixidagi ilk qomusiy asar hisoblanadi va xalqimiz tarixiga oid eng qimmatli manbadir.

O‘zbek lug‘atchilik tarixi, aslida, eski turkiy til lug‘atchiligi va arab tili lug‘atchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. “Devonu lug‘atit turk”(1073-1071-y), “Muqaddimatul adab” (1137-y), “Kitob ul-idrok li lisonul atrak” (1312-y), “Attuhfatuz zikayatu fit lug‘atit turkiya” (XIII asr) kabi asarlar arab tilida va arab tilshunosligi an’analarida yozilgan bo‘lsada, ularning barchasida qadimgi turkiy til va eski turkiy til lug‘ati o‘z ifodasini topgan.¹

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida chig‘atoy tili deb nomlangan eski o‘zbek adabiy tili davri (XIV-XIX asrlar) alohida o‘rin tutadi.

XV-XVI asrlardan boshlab Alisher Navoiy ijodiga qiziqishning ortib borishi qator lug‘atlarning yaratilishiga olib keladi. Quyidagilar shular jumlasidandir : “**Badoyeul lug‘at**” – o‘zbekcha-forscha lug‘at xarakterida (Toile Hivariy), “**Abushqa**” – chig‘atoycha-turkcha lug‘at (muallifi noma’lum), “**Lug‘ati turk**” –

chigʻatoycha-forscha lugʻat (Pazlullaxon), **“Kelurnoma”** – chigʻatoycha-forscha lugʻat (Muhammad Yoqub Chingiy), **“ Sanglah”** – chigʻatoycha-forscha lugʻat (Mahdixon Muhammad Nizomiddin Muhammad Hodiy al-Husayniy). Uning **“Xuloasai Abbosiy”** deb nomlangan qisqartirilgan varianti ham bor. **“Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy”** (Shayx Sulaymon Buxoriy) kabi asarlar ayni davrda yaratilgan.²

Oʻzbek lugʻatchiligini tilshunos olim Hasanxon Jamolxonov yuqoridagi ikki davrdan tashqari yana quyidagi uchta guruhda davrlashtirgan :

- XIX asr ikkinchi yarmida Oʻzbekistonda lugʻatchilik ;
- XX asrning birinchi yarmida lugʻatchilik;
- XX asrning ikkinchi yarmida lugʻatchilik.

Hozirgi davrda maʼlumotaxborot toʻplash va uni oʻquvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega. Soʻzni tavsiflashdagi bir qancha farqli xususiyatlariga koʻra, lugʻatlarni asosan 2 turga: ensiklopedik va lingvistik (filologik), lugʻatlarga ajratish mumkin. Ensiklopedik lugʻat soʻzlarning oʻzini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi. Lingvistik lugʻatlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan soʻzning maʼnolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Lingvistik lugʻatlar leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usullari nuqtai nazaridan bir qancha turlarga boʻlinadi:

1. Soʻzlarning maʼnolari, qullanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlarini koʻrsatib beruvchi izohli lugʻat (S. I. Ojegov. Tolkoviy slovar russkogo yazika, 20-ye izd., M., 1988; Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1—2-j.lar, M., 1982).

2. Muayyan tilga oʻzlashgan, lekin oʻzlashmaligi sezilib turgan boshqa til soʻz va terminlarini tushuntirib beruvchi xorijiy soʻzlar lugʻati (Slovar inostrannix slov, 18-ye izd., M., 1989; O. Usmon, R. Doni-yorov. Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati, T., 1965).

3. Bir tilga oid lugʻaviy birliklarni boshqa tilga oʻgirib izohlab beruvchi tarjima lugʻatlari — oʻzbek leksikografiyasida keng tarqalgan, qadimdan maʼlum lugʻat turi, 19-asrgacha arab-oʻzbek, fors-oʻzbek, turk-oʻzbek ikki tilliligiga asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lugʻatari mavjud boʻlgan boʻlsa, XX asrda ular qatoriga mazkur tillar bilan birga ingliz, nemis, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lugʻatlar ham qoʻshildi [Nemischa-oʻzbekcha lugʻat, 1964; Oʻzbekcha-nemischa lugʻat, 1967; Fransuzcha-oʻzbekcha lugʻat, 1973; Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat, 1968; Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat, 1969; Arabcha-oʻzbekcha lugʻat, 1986; Oʻzbekcha-forscha lugʻat, 1984; Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat (A. Zohiriy, 1927), 1 j.li Ruscha-oʻzbekcha lugʻat, M., 1954; 5 j.li Ruscha-oʻzbekcha lugʻat; 1950—55; 1 j.li Oʻzbekcha-ruscha lugʻat (M. 1959; T., 1988); 2 j.li Ruscha-oʻzbekcha lugʻat, 1983—84 va boshqa].

4. Soʻzlarning qachondan boshlab shu tilda qoʻllana boshlagani, uning fonetik, grammatik, semantik belgilari taraqqiyotini koʻrsatib beruvchi tarixiy lugʻat (oʻzbek tilida haqiqiy maʼnodagi tarixiy lugʻat tuzilmagan, lekin E.Fozilovning “Starooʻzbekskiy yazik: Xorezmskiye pamyatniki XIV veka” (ch. 1-2, T., 1966, 1971) asarini maʼlum maʼnoda tarixiy lugʻat deyish mumkin).

5. Tilning lahja va shevalariga xos boʻlgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi soʻzlardan farq qiladigan soʻzlarni koʻrsatuvchi dialektal (sheva) lugʻatlar (Oʻzbek xalq shevalari lugʻati, 1971).

6. Soʻzning kelib chiqishini koʻrsatib beruvchi etimologik lugʻatlar (Sh.Rahmatullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati, 2000).

7. Bir oilaga mansub tillardagi soʻz boyligini solishtirib, ulardagi tafovut qonuniyatlarini oʻrganish maqsadida tuziluvchi qiyosiy lugʻatlar (Budagov. Sravnitelniy slovar turetsko-tatarskix narechiy, ch. 1—2, S.-Pb., 1869; V.V.Radlov. Opit slovary tyurskix narechiy: 1—4. S—Pb., 1888—1911).

8. Soʻzlarning mavjud imlo qoidalariga binoan toʻgʻri yozilish shakllarini qayd etuvchi imlo lugʻati (1929 yildan hozirgacha oʻzbek tilining turli hajmli 20 dan ortiq imlo lugʻati tuzilgan; 6500 soʻz va soʻz shaklini qamrab olgan eng mukammal imlo lugʻati 1975 yil nashr etilgan).

9. Soʻzlarning adabiy talaffuzi qayd etiladigan talaffuz (orfoepik) lugʻati (Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati — M. Sodiqova, Oʻ. Usmonova, 1977; Oʻzbek adabiy talaffuzi lugʻati, 1984).

10. Soʻzlarning morfem tuzilishini koʻrsatuvchi morfem lugʻat (A. Gʻulomov va boshqa Oʻzbek tilining morfem lugʻati, 1977).

11. Soʻzligi frazeologik birliklardan iborat boʻlgan frazeologik lugʻat (M. Sodiqova. Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat, 1972; Sh. Rahmatullayev. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati 1978).

12. Soʻzlarning qoʻllanish miqdori va foizi haqida maʼlumot beruvchi chastotali lugʻat (I. A. Kissen. Slovar naiboleye upotrebitelnix slov sovremennogo oʻzbekskogo literaturnogo yazika, 1972).

13. Soʻzlar teskari tomondan boʻlgan alifbo tartibiga kura joylashtirilgan ters (chappa) lugʻat (R. Qoʻngʻurov va A. Tixonov. Oʻzbek tilining chappa lugʻati, 1968).

14. Soʻzlikni tarkib toptiruvchi soʻzlar roʻyxati maʼlum mavzularga boʻlib beriladigan tematik (mavzuli) lugʻat (A. Tixonov va boshqa Russko-oʻzbekskiy tematcheskiy slovar, 1975).

15. Soʻzliklari omonim, sinonim, antonim, paronim singari lugʻaviy birliklardan iborat boʻlgan omonimlar lugʻati, sinonimlar lugʻati, antonimlar lugʻati, paronimlar lugʻati (Sh. Rahmatullayev. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugati, 1984; A. Hojiyev, Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati, 1974; Sh. Rahmatullayev va boshqa Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati, 1980; A. Maʼrufov. Paronimlar lugʻati, 1974).

16. Soʻzligi atoqli otlar yoqi joy nomlaridan iborat boʻlgan antroponimik va toponimik lugʻatlar (E. Begmatov. Oʻzbek ismlari, 1991; E. Begmatov. Oʻzbek ismlari maʼnosi. 14600 ism izohi, 1998; 3. Doʻsimov va X. Egamov. Joy nomlarining izohli lugʻati, 1977).

17. Maʼlum bir yozuvchi yoki asar tilida qoʻllangan soʻzlarni izohlovchi. Lugʻat (Navoiy asarlari lugʻati, 1972; Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati, 1 — 4-j.lar, 1983—84; B. Hasanov, “Qurʻoni Karim” soʻzlarining arabcha-oʻzbekcha koʻrsatkichli lugʻati, 1995).

18. Soʻzligi maʼlum bir fan va texnika tarmogʻi, ijtimoiy yoki xoʻjalik hayotining biror sohasiga oid soʻz-terminlardan iborat boʻladigan terminologik lugʻatlar. Bunday lugʻatlar soʻzlikning berilishi va izohlanishiga koʻra, ensiklopedik lugʻat bilan lingvistik lugʻat Belgilariga ega boʻladi (1925- yildan hozirgi kungacha Oʻzbekistonda 50 dan ortiq soha boʻyicha 140 taga yaqin terminologik lugʻat nashr etilgan; ular soha terminologiyalarini tartibga solishga xizmat qiladi).³

Lugʻat turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Yuqorida, asosan, oʻzbek lugʻatchiligida mavjud boʻlgan va amalda foydalanib kelinayotgan lugʻat turlarigina koʻrsatildi. Bu narsa lugʻatlarning vazifa doirasi naqadar kengligini va ularning oʻta muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

Yuqorida lugʻatlar til taraqqiyoti davrida maʼlum ehtiyojlar natijasida paydo boʻlgan degandik. Masalan, biron soʻzni izohlash, boshqa tillarda qanday atalishi bilan bogʻliq holatlar.

Abdulahob Madvaliyev boshligida tuzilgan besh jildlik “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da soʻzlarning maʼno qirralarini izohlash bilan bir qatorda uning qaysi tildan kirib kelganligi va oʻsha tilda qanday yozilishi ham keltirilgan.

Lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tilida keng isteʼmolda boʻlgan 80 mingdan ortiq soʻz va soʻz birikmalari, fan, texnika, sanʼat va madaniyatga oid terminlarni, bir necha shevada qoʻllanadigan soʻzlarni, baʼzi tarixiy va eskirgan soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Lugʻatda berilgan soʻzlarning amalda qoʻllanilishi XX asr oʻzbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Masalan, **abbat** (lot. abbas, abbatis)

1. Erkaklar katolik monastirining boshligʻi.

2. Fransiyada katoliklarning ruhoniysi.

Abgor (f. ابگور – yaralgan, majruh, toliqqan) Nochor holatli, ahvoli xarob. Umarqul abgor bir ahvolda oʻrnidan turib, xurjunni ochdi. H.Gʻulom. Mashʼal. Juda tirikchiliging oʻtmay, abgor boʻlib qoldingmi? H.Nazir. Koʻkterak shabadasi.⁴

Yuqorida biz oʻzbek leksikografiyasining bir qatrasinigina koʻrib oʻtdik. Leksikografiya bu katta ummon va ummon deyarli har kuni toʻlib boradi. Bu ummonni kezib, har bir qatrasini oʻrganish uchun esa katta vaqt va kuch talab etiladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, ummonlar ham tomchilardan hosil boʻlgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹ Hasanxon Jamolxonov – Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – “Talqin” – 2005-yil, 237-bet.

² O‘sha manba – 239-240-betlar.

³ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lug%CA%BBat>

⁴ Abduvahob Madvaliyev – O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Toshkent – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti – 2006-2008- yillar, 25-26- betlar.